

MUTAFAKKIRLARNING IJODIY FAOLIYATIDA TA'LIM –TARBIYAGA OID YONDASHUVLAR

*Shukrullayeva Zulfiya Nasrullayevna,
Buxoro pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada buyuk mutafakkirlarning ta'lim –tarbiyaga oid purma'no fikrlari, tarbiyada ibrat-namuna ko'rsatishning o'rni yoritib berilgan. Avvalo tarbiyachining o'zi tarbiya ko'rgan bo'lishi, o'quvchi-tarbiyalanuvchilar ustozlari va kattalardan o'rnak olishlari yorqin misollar bilan asoslab berilgan

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, komil inson, fozil shaxs, ibrat-namuna ko'rsatish, insoniy fazilatlar, milliy qadriyatlar.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim-tarbiyadir.

E'tiqodi butun, har tomonlama kamol topgan, milliy qadriyatlar va axloqiy fazilatlarining qadriga yeta bilgan hamda ularga rioya qiladigan shaxsgina mustaqil O'zbekistonimizning ertasini yaratadi. Shu bois o'quvchi-yoshlarni milliy qadriyatlar, axloqiy fazilatlar asosida tarbiyalash bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ahmad Yassaviyning orif, Farobiyning fozil shaxs, Alisher Navoiyning komil inson haqidagi fikrlari bugun ham ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishda asosiy dastur hisoblanadi. Vatanimiz istiqlolini mustahkamlashda ma'naviy sog'lom avlodni voyaga yetkazish va ularda axloq- odob haqidagi milliy urf- odatlarimizni shakllantirish zarur.

Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo'lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o'rni beqiyosdir. Ota-ona, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo'lsa, shu jamiyat va muhitda o'sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo'lib yetishadi. Bunday sermas'uliyat ijtimoiy ishni amalga oshirish, ya'ni yoshlarimizning odobli, xushxulqli, vijdoni pok kishilar bo'lib yetishishlari uchun o'z xulq- atvorimiz bilan ularga yaxshi ibrat va namuna bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

O'smir va o'spirinlar ko'pincha ustozlari va kattalarning tashqi yashash tarzidan o'rnak oladilar. Tarbiyachi hamma vaqt o'z so'ziga amal qilishi va so'zining ustidan chiqishi kerak. Ibratning aynan shu jihati komil inson tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

Ibrat tarbiyasi insonni qadimdan qiziqtirib kelgan. Bu ayniqsa, Yunonistonning mashhur mutafakkirlari Aflotun va Arastuning nomi bilan bog'liq pandnomalardan keng o'rin olgan. Arastuning aytishicha, tarbiyachining o'zi tarbiya ko'rgan, insoniy fazilatlarni egallagan bo'lishi darkor."Shuni bilgingki, - deydi Arastu, -ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi odam o'zi tarbiya ko'rmagan bo'lsa, boshqalarni tarbiya qila olmaydi. Xulqi yaxshi kishi boshqalarni yaramas va iflos ishlarga boshlay olmaydi. Agar sen o'z o'quvchingni tarbiyalamoqchi bo'lsang, avval o'z ruhingni yaxshilashdan boshla. Mabodo o'zgalar aybini bartaraf etmoqni ixtiyor etsang, bundan oldin o'z nafsingni nuqson va illatlardan tozalashing zarur. Ammo ko'zi ojiz bo'lgan kishi qanday qilib ko'rga yo'l ko'rsata oladi? Xor va tuban kishi boshqalarga obro' va qadr-qimmat ato qila oladimi?"

Buyuk ajdodlarimiz ilm-fanning qaysi sohasi bilan shug'ullanmasin, inson ma'naviyatini shakllantirishga, ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berganlar. Jumladan, Farobiyning "Fozil odamlar shahri", "Baxt –saodatga erishuv haqida", Ibn Sinoning "Qush risolasi", Abu Rayxon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kabi asarlari inson shaxsini, uning axloqiy tarbiyasini, ma'naviyatini shakllantirish muammosini tahlil etishga bag'ishlangan. Ma'naviy tarbiya masalalari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul xaqoyiq", Sa'diyning "Guliston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub", "Hayratul abror", Abdulla Avloniyning "Turkiy gulistin yoxud axloq" asarlarida yoritilgan. Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida inson axloqi xususida fikr bildirib, shunday deydi: "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat –yo falokat masalasidir".

Alisher Navoiy "Mahbub-ul-qulub" asarida yozganidek, odob –ulug'lar ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi va u odobli yoshlarga bo'lgan muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l- atvori odobdir, odoblilarning yurish- turishida xalq ulug'vorlik ko'radi...

Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'ginlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitratning quyidagi fikrlariga har birimiz, ayniqsa, hayotga endi kirib kelayotgan o'g'il- qizlarimiz amal qilishlari lozim." Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat- hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib

xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog'liq"- deya ta'kidlab o'tilgan.

Buyuk mutafakkir va ma'rifatparvarlarning tarbiyaga oid qarashlari o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim bo'lgan bo'lsa, oradan qancha yillar o'tib hozirgi kunda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhimdir.

Demak, bugungi yoshlarimizning kamoloti va unga mos dunyoqarashi muntazam ravishda takomillashib ,rivojlanib borishida ibrat –namunaning o'rnini beqiyosdir.Bu o'z navbatida Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratuvchilarining ongli a'zolarini tayyorlashni kafolatlaydi. Bu olam aslida ma'rifat va uning o'zagini tashkil etuvchi tarbiya tufayli go'zal va rang-barang. Tarbiya ziyosi tufayli ko'ngillar ravshan, qalblar xotirjam, umrlar mazmundor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Ta'lim -tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi tizimi", 2-noyabr 2020 –yil.
2. A.Navoiy "Tanlangan asarlar" G'.G'ulom nomidagi NMIU , Toshkent -2020.
3. A.Avloniy "Tanlangan asarlar" 2-jild, "Ma'naviyat" nashriyoti, Toshkent-2009.
4. A.Haydarov "Inson kamoloti va milliy- ma'naviy qadriyatlar", Toshkent-2008.
5. U.Mahkamov " Axloq – odob saboqlari" "Fan" nashriyoti, Toshkent-1994.